

HUDUDIY INNOVATSION SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBALARINI INSTITUTSIONAL ADAPTATSIYA QILISH IMKONIYATLARI

G‘aniyev Sanjar Poziljon o‘g‘li

Namangan davlat texnika universiteti

o‘qituvchisi

E-mail: sanjarkfu@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada hududiy innovatsion siyosatni takomillashtirishda xorijiy mamlakatlar tajribalarini institutsional adaptatsiya qilish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya, Xitoy va Finlyandiya kabi davlatlarning innovatsion siyosat modellarini mintaqaviy darajada integratsiya qilishning samarali mexanizmlari o‘rganilgan. Namangan viloyatining innovatsion siyosatini xalqaro amaliyot bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlari, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, hamda davlat–ilm-fan–biznes sektorlari o‘rtasida institutsional uyg‘unlikni kuchaytirish yo‘llari ilmiy asosda yoritildi. Xorij tajribalarini mahalliy sharoitga moslashtirishda institutsional to‘siqlar, normativ-huquqiy moslashuv mexanizmlari va ijtimoiy muhitning roli tahlil qilingan. Natijada, mintaqaviy innovatsion siyosatni transformatsiya qilish uchun konseptual adaptatsiya modeli taklif etildi.

Kalit so‘zlar: hududiy innovatsion siyosat, xorij tajribasi, institutsional adaptatsiya, mintaqaviy iqtisodiyot, “Triple Helix” modeli, innovatsion boshqaruv, klaster siyosati, O‘zbekiston, Namangan viloyati, texnopark infratuzilmasi, xalqaro integratsiya.

Аннотация

В статье рассматриваются возможности институциональной адаптации зарубежного опыта в совершенствовании региональной инновационной политики. Исследование основано на анализе моделей инновационной политики таких стран, как Европейский Союз, Южная Корея, Китай и Финляндия, а также на выявлении механизмов их эффективной интеграции на региональном уровне. Особое внимание уделено адаптации международных практик к условиям Узбекистана, в частности Наманганской области, где акцент сделан на модернизацию управления, усиление институционального взаимодействия между государством, наукой и бизнесом. В работе проанализированы институциональные барьеры, правовые аспекты и социально-экономические условия адаптации инновационной политики. Результаты исследования позволили разработать концептуальную модель институциональной адаптации для совершенствования региональной инновационной системы.

Ключевые слова: региональная инновационная политика, зарубежный опыт, институциональная адаптация, региональная экономика, модель «тройной спирали», инновационное управление, кластерная политика, Узбекистан, Наманганская область, технопарковая инфраструктура, международная интеграция.

Abstract

This article examines the possibilities of institutional adaptation of foreign experiences in improving regional innovation policy. The study analyzes the innovation policy models of the European Union, South Korea, China, and Finland, identifying mechanisms for their effective integration at the regional level. Special attention is given to aligning these international practices with the context of Uzbekistan—particularly the Namangan region—by focusing on governance modernization, strengthening institutional cooperation between the state, academia, and business, and enhancing innovation infrastructure. The article explores institutional barriers, legal harmonization mechanisms, and the socio-economic conditions influencing policy adaptation. As a result, a conceptual model for institutional adaptation is proposed to improve regional innovation systems and foster sustainable innovation-driven growth.

Keywords: regional innovation policy, foreign experience, institutional adaptation, regional economy, Triple Helix model, innovation management, cluster policy, Uzbekistan, Namangan region, technopark infrastructure, international integration.

KIRISH

Global iqtisodiyotning raqobatbardoshlik tizimida innovatsion siyosatni hududiy darajada tashkil etish masalasi XXI asrda davlatlarning barqaror rivojlanish salohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylandi. Xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalar endilikda faqat ilmiy yangilik sifatida emas, balki institutsional va ijtimoiy-iqtisodiy ekotizimlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik natijasi sifatida qaralmoqda [1]. Shu nuqtai nazardan, "Regional Innovation Ecosystem" (RIE) modeli zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning konseptual asosi sifatida shakllandi. Ushbu modelda innovatsiyalar davlat boshqaruvi, universitetlar, ishlab chiqarish sektori, fuqarolik jamiyati va moliyaviy infratuzilma o'rtasidagi tizimli o'zaro bog'liqlik orqali yuzaga keladi. Ya'ni, RIE yondashuvi mintaqaviy siyosatni, ilm-fan, texnologiya va jamiyatning uzviy integratsiyasini yagona boshqaruv mexanizmida uyg'unlashtiradi [2].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturining 2023-yilgi Human Development Report hisobotida qayd etilishicha, innovatsion ekotizimlarning samaradorligi, avvalo, ularning institutsional muvofiqlik darajasi bilan belgilanadi [3]. Ushbu yondashuvda innovatsion siyosatni mintaqaviy darajada amalga oshirish uchun davlat, ilm-fan va ishlab chiqarish sektorlari bilan bir qatorda, jamiyat va bozor infratuzilmasi ham faol ishtirok etishi zarur. OECD (2023) tomonidan ishlab chiqilgan Regional Innovation Policy Frameworkda esa RIE modeli "multi-level governance" — ya'ni ko'p darajali boshqaruv tamoyillari orqali izohlanadi. Bu yondashuv innovatsion siyosatni faqat markaziy darajada emas, balki hududlar o'zining iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy imkoniyatlariga asoslanib mustaqil shakllantirishi kerakligini ta'kidlaydi [4].

Xalqaro tajriba, xususan Finlyandiya, Janubiy Koreya, Xitoy va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining mintaqaviy innovatsion siyosat modellarida RIE konsepsiyasi amalda qo'llanilmoqda. Finlyandiyaning "Tekes" dasturi orqali davlat, ilmiy

muassasalar va biznes sektori o'rtasida yaratilgan innovatsion ekotizim natijasida innovatsion mahsulotlar eksporti 2015–2023 yillar oralig'ida 45 foizga oshgan. Janubiy Koreyada “Innovation City Initiative” dasturi asosida 12 ta yangi texnologik klaster shakllantirilib, mintaqaviy iqtisodiy o'sishga 1,8 foizgacha hissa qo'shgan. Xitoyning “National Innovation Demonstration Zones” siyosati esa mintaqaviy ilmiy markazlarni ishlab chiqarish bilan bog'lab, innovatsion ishlab chiqarish hajmini 33 foizga oshirishga xizmat qilgan [5]. Ushbu tajribalar shuni ko'rsatadiki, RIE modeli institutlararo hamkorlikni faqat vertikal boshqaruv (davlat → tarmoq) darajasida emas, balki gorizont — ya'ni mintaqaviy, tarmoqlararo va ijtimoiy darajada ham muvofiqlashtirishga asoslanadi.

O'zbekiston sharoitida 2020-yildan boshlab innovatsion siyosatni xalqaro tajribalarga moslashtirish jarayoni izchil rivojlanib bormoqda. “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi, “Innovatsion rivojlanish strategiyasi” hamda “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” orqali innovatsion boshqaruv tizimida RIE modeliga yaqin yondashuvlar joriy etildi. Bu jarayonlar doirasida ilmiy-tadqiqot markazlari, texnoparklar, startap inkubatorlari, moliyaviy institutlar va ta'lim tizimi o'rtasida hamkorlik mexanizmlari shakllandi. Ayniqsa, Namangan viloyati misolida 2017–2023 yillar davomida innovatsion faol korxonalar sonining 3,2 barobar, texnoparklar sonining 5 barobar ortgani, mintaqaviy ilmiy salohiyat va investitsiyalar hajmining oshgani RIE modelining amaliy asoslarini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, xorijiy tajribalarni RIE modeli tamoyillari asosida O'zbekistonning hududiy iqtisodiy tizimiga moslashtirish innovatsion siyosatni yanada samarali, barqaror va institutsional jihatdan uyg'un mexanizmga aylantirish imkonini beradi. Bu jarayon iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va ilmiy salohiyatni oshirish uchun zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etishning ilmiy-nazariy poydevorini yaratadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqaviy innovatsion siyosatni takomillashtirishda xorijiy tajribalarni institutsional adaptatsiya qilish nazariyasi so'nggi yillarda innovatsion boshqaruv konsepsiyalarining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Freeman tomonidan ishlab chiqilgan “Milliy innovatsion tizim” konsepsiyasi bu borada fundamental asos bo'lib xizmat qiladi. Muallif innovatsion rivojlanishning muvaffaqiyati davlat siyosati, ilmiy-tadqiqot muassasalari va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy aloqadorlik darajasiga bog'liqligini ta'kidlaydi [6]. Lundvall esa bu modelni rivojlantirib, innovatsiyalarni “ijtimoiy o'rganish” va “bilim oqimi” jarayonlari orqali shakllanadigan tizimli mexanizm sifatida talqin etadi [7]. Shu tariqa, innovatsion siyosatni faqat yuqoridan pastga (top-down) boshqaruv emas, balki ko'p yo'nalishli (multi-actor) hamkorlik asosida amalga oshirish zarurligi ilmiy asoslab beriladi.

Mintaqaviy darajada innovatsion tizimlar nazariyasi Cooke tomonidan ishlab chiqilgan “Regional Innovation Systems (RIS)” konsepsiyasi orqali yangi bosqichga ko'tarildi. Unga ko'ra, innovatsion siyosatning muvaffaqiyati har bir hududning ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda lokal darajada shakllantirilishi lozim. Cooke “bilim klasterlari” va “mintaqaviy kompetensiya

markazlari”ni innovatsion siyosatning asosi sifatida ko‘radi [8]. Bu yondashuv “Regional Innovation Ecosystem” (RIE) modelining metodologik ildizini tashkil etadi, chunki u innovatsion jarayonni faqat ishlab chiqarish bilan cheklamay, balki ta’lim, ilmiy izlanishlar, moliyaviy sektor va boshqaruv mexanizmlarini yagona ekotizim sifatida ko‘radi.

Asheim va Isaksen o‘z tadqiqotlarida innovatsion tizimlarning “sticky knowledge” (hududiy bilim) va “ubiquitous knowledge” (global bilim) o‘rtasidagi muvozanatini ta’minlash zarurligini asoslab bergan [9]. Ularning fikricha, mintaqaviy innovatsion siyosatning institutsional muvaffaqiyati lokal bilimlarning global texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan darajasiga bog‘liqdir. Bu yondashuv RIE modelining nazariy asosini mustahkamlaydi, chunki u global innovatsion tajribalarni hududiy darajada adaptatsiya qilish imkoniyatlarini aniqlaydi.

Doloreux va Parto esa “Regional Innovation Systems: Current Discourse and Unresolved Issues” nomli tadqiqotida innovatsion siyosatni institutsional jihatdan tahlil qilib, tizimning samaradorligi uchta asosiy omil — institutsional uyg‘unlik, boshqaruv sifati va ijtimoiy kapital darajasi — bilan belgilanadi, degan xulosaga keladi [10]. Shu jihatdan, innovatsion siyosatni takomillashtirishda xorijiy modelni to‘liq nusxalash emas, balki mahalliy sharoitga moslashtirish (adaptatsiya) jarayonida ushbu omillarni inobatga olish zarur.

OECD tomonidan ishlab chiqilgan Regional Innovation Policy Framework hisobotida esa RIE modelining amaliy qirralari keng yoritilgan. Hisobotda “multi-level governance” tamoyili asosida davlat siyosati, mahalliy boshqaruv va biznes sektori o‘rtasidagi vertikal va gorizontal integratsiyani kuchaytirish innovatsion siyosat samaradorligini oshirishning asosiy vositasi sifatida e’tirof etiladi [11]. Bu model Finlyandiya, Janubiy Koreya, Norvegiya va Yevropa Ittifoqining ayrim mintaqalarida muvaffaqiyatli joriy qilingan.

UNDP Human Development Report hisobotida innovatsion siyosatni ijtimoiy jihatdan inklyuziv rivojlanish bilan bog‘lash zarurligi ta’kidlangan. Hisobotda innovatsion siyosatning institutsional adaptatsiyasi fuqarolik jamiyati, ta’lim tizimi va biznes sektori o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashi mumkinligi qayd etiladi [12]. Bu fikr RIE modelining mohiyatiga mos keladi, chunki unda innovatsiyalar nafaqat texnologik o‘shish, balki ijtimoiy kapitalning rivojlanish vositasi sifatida ham qaraladi.

European Commission tomonidan amalga oshirilgan Horizon Europe dasturida esa RIE modeli “smart specialization” konsepsiyasi bilan bog‘langan. Ushbu yondashuv har bir mintaqaning o‘ziga xos ilmiy-texnik salohiyatini aniqlash va shu sohalarida chuqurlashgan innovatsion siyosat yuritishni taklif etadi [13]. Bu yondashuv O‘zbekiston sharoitida ham dolzarb, chunki mintaqalar iqtisodiy ixtisoslashuv darajasiga ega. Masalan, Namangan viloyati uchun to‘qimachilik va elektrotexnika sanoati, Farg‘ona viloyati uchun neft-kimyo, Toshkent uchun axborot texnologiyalari yo‘nalishlarida smart ixtisoslashuv strategiyasini shakllantirish mumkin.

World Bank hisobotlarida Xitoy, Janubiy Koreya va Polshaning RIE modeli asosida iqtisodiy transformatsiya tajribalari o‘rganilgan. Tahlillarga ko‘ra, bu

mamlakatlarda hududiy innovatsion siyosatni takomillashtirish iqtisodiy o‘shishni 1,5–2 barobarga oshirgan, ilmiy-tadqiqot xarajatlarini esa YaIMning 3 foizigacha yetkazgan [14]. Bu tajriba O‘zbekiston mintaqalarida, ayniqsa Namangan viloyatida, xorijiy modelni mahalliy iqtisodiy struktura bilan integratsiyalash imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Regional Innovation Ecosystem” modeli innovatsion siyosatni hududiy darajada tizimlashtirish, xorijiy tajribalarni moslashtirish hamda institutsional uyg‘unlikni ta‘minlash uchun eng maqbul konsepsiya hisoblanadi. Bu modelning asosiy afzalligi — u bilim almashinuvi, tarmoqlararo integratsiya va ijtimoiy kapitalni birlashtirib, innovatsion rivojlanishning barqaror mexanizmini shakllantirishga imkon yaratadi. Shu bois, O‘zbekiston uchun xorijiy tajribalarni RIE modeli tamoyillari asosida institutsional adaptatsiya qilish mintaqaviy siyosatni yangi bosqichga olib chiqishning ilmiy-nazariy garovi bo‘lib xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi hududiy innovatsion siyosatni takomillashtirishda xorijiy tajribalarni institutsional adaptatsiya qilish imkoniyatlarini ilmiy asosda o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u Regional Innovation Ecosystem (RIE) modelining nazariy tamoyillariga tayanadi. Mazkur model doirasida innovatsion siyosat davlat, ilmiy-tadqiqot muassasalari, biznes sektori, ta‘lim tizimi va ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi ko‘p qatlamli o‘zaro hamkorlik tizimi sifatida talqin etiladi. Tadqiqot jarayonida tizimli, komparativ va institutsional tahlil yondashuvlari qo‘llanilib, Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya, Xitoy va Finlyandiya tajribalari O‘zbekiston sharoitiga qiyosiy moslashtirildi. Bu yondashuv xorijiy modellarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri transfer qilish emas, balki ularni mahalliy boshqaruv, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlar bilan uyg‘unlashtirish orqali adaptatsiya qilish imkonini beradi.

Tadqiqotning empirik qismi Namangan viloyati misolida 2017–2023 yillar oralig‘idagi innovatsion faoliyat ko‘rsatkichlariga asoslangan. Ma‘lumotlar Davlat statistika qo‘mitasi, Innovatsion rivojlanish vazirligi va Namangan viloyati hokimligi hisobotlari asosida tahlil qilindi. Innovatsion siyosat samaradorligini baholashda “Institutsional Uyg‘unlik Indeksi (IUI)” ishlab chiqilib, u ilmiy muassasalar soni, texnoparklar faoliyati, startaplar ulushi, investitsion oqimlar hajmi va kadrlar tayyorlash ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oldi. Shuningdek, RIE modelining empirik tasdig‘i sifatida panel tahlil va regressiya usullari (OLS, FE) qo‘llanilib, xorijiy tajribalarning mintaqaviy innovatsion boshqaruv samaradorligiga ta‘sirini aniqlashga qaratilgan statistik modellashtirish amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil va natijalar bo‘limida Namangan viloyatining 2017–2023 yillar oralig‘idagi innovatsion rivojlanish dinamikasi, mintaqaviy iqtisodiyotda xorijiy tajribalarga asoslangan Regional Innovation Ecosystem (RIE) modelining shakllanish bosqichlari va institutsional moslashuv jarayonlari chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari viloyatda innovatsion siyosatning tizimli asosda rivojlanayotganini, ya‘ni

ilmiy-tadqiqot muassasalari, texnoparklar, startaplar, ishlab chiqarish korxonalari va mahalliy boshqaruv organlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mexanizmlarining kuchayganini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, innovatsion faoliyatning o‘shish tendensiyasi, investitsion oqimlarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi va ilmiy salohiyatning ortishi mintaqada RIE modeli tamoyillarining amalda joriy etilayotganini tasdiqlaydi.

Tahlillar mintaqaviy innovatsion siyosatning empirik ko‘rsatkichlarini tizimli yondashuv asosida baholashga qaratilgan bo‘lib, u iqtisodiy, institutsional va ilmiy indikatorlarning o‘zaro ta‘sirini aniqlash imkonini beradi. Namangan viloyati misolida innovatsion korxonalar soni, investitsiyalar hajmi, ilmiy salohiyat, kadrlar tayyorlash sifati va ishlab chiqarish samaradorligi kabi ko‘rsatkichlar o‘rganildi. Ushbu yondashuv xorijiy modellarni bevosita nusxalashdan ko‘ra, ularni mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga mos ravishda institutsional adaptatsiya qilishning mintaqaviy natijalarini aniqlashga xizmat qiladi. Natijalar mintaqada innovatsion siyosatning iqtisodiy o‘shishga integratsiyalashganligini va barqaror innovatsion ekotizim shakllanayotganini ilmiy asosda ko‘rsatib beradi.

Namangan viloyatida 2017–2023 yillar davomida innovatsion faol korxonalar hamda texnoparklar sonining o‘shish dinamikasini aks ettirib, hududda innovatsion infratuzilmaning kengayishi va mintaqaviy iqtisodiyotda texnologik yangilanish jarayonlarining faollashganini ko‘rsatadi (1-jadval).

1-jadval.

Namangan viloyatida innovatsion faol korxonalar va texnoparklar dinamikasi¹

Yil	Innovatsion faol korxonalar soni (dona)	Texnoparklar soni (ta)	Yillik o‘shish, foizda	Innovatsion mahsulot ulushi, foizda
2017	86	1	—	3,1
2018	102	1	18,6	3,5
2019	125	2	22,5	4,0
2020	156	3	24,8	4,6
2021	190	3	21,8	5,2
2022	232	4	22,1	6,1
2023	276	5	18,9	6,8

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2017–2023 yillar oralig‘ida Namangan viloyatida innovatsion faol korxonalar soni 86 tadan 276 taga yetib, 3,2 barobar oshgan. Shu bilan birga, texnoparklar soni 1 tadan 5 tagacha ko‘paygan bo‘lib, bu hududda innovatsion infratuzilmaning sezilarli darajada kengayganidan dalolat beradi. Innovatsion mahsulot ulushi 2017-yildagi 3,1 foizdan 2023-yilda 6,8 foizga ko‘tarilib, iqtisodiyotning texnologik tarkibida innovatsion ishlab chiqarishning hissasi oshgan. Yillik o‘shish sur’atlari 18–25 foiz diapazonida shakllanib, ayniqsa 2020–2021 yillarda pandemiya sharoitiga qaramasdan barqaror saqlanib qolgan. Bu o‘shish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabr PF-6079-son ““Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari

¹ Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

to‘g‘risida”gi Farmonida¹ belgilangan chora-tadbirlarning mintaqaviy darajada amalda joriy etilayotganini tasdiqlaydi.

Korxonalar va texnoparklar o‘rtasidagi hamkorlik tarmoqlarining kuchayishi, ilmiy tadqiqot natijalarining ishlab chiqarishga tatbiq etilishi hamda mahalliy boshqaruv organlarining innovatsion muhitni qo‘llab-quvvatlashdagi faolligi institutsional uyg‘unlikning ortganidan dalolat beradi. Bu holat viloyatda innovatsion boshqaruvning tizimli bosqichga o‘tganini, ya’ni ilm-fan, biznes va davlat siyosati o‘rtasidagi aloqadorlikning RIE modeli tamoyillari asosida barqarorlashayotganini tasdiqlaydi. Natijada, innovatsion korxonalar sonining ko‘payishi nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini, balki hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ham oshirgan.

2017–2023 yillar oralig‘ida Namangan viloyatida innovatsion faoliyatning miqyos va sifat jihatidan sezilarli o‘sishi kuzatilgan. Innovatsion korxonalar sonining 3,2 barobar, texnoparklar sonining 5 barobar oshgani bilan bir qatorda, tumanlar kesimida innovatsion investitsiyalar hajmi ham o‘rtacha to‘rt barobarga ortgan. Bu holat viloyatning iqtisodiy tizimida innovatsion siyosat barqaror mexanizmga aylanganini, ishlab chiqarish, ilm-fan va investitsion kapital o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik kuchayganini ko‘rsatadi. Shu tariqa, hududiy innovatsion ekotizim tarkibida ishlab chiqarish korxonalari, texnoparklar va ilmiy markazlar o‘rtasida institutsional uyg‘unlik shakllanib, mintaqaning raqobatbardoshligi va texnologik salohiyati yangi bosqichga ko‘tarildi.

Namangan viloyatining tumanlar kesimida 2017–2023 yillar davomida innovatsion investitsiyalar hajmining keskin o‘shishini ko‘rsatadi. Shu davrda Namangan shahrida investitsiyalar hajmi 250 mlrd so‘mdan 1 180 mlrd so‘mgacha oshgan, Pop va Norin tumanlarida esa o‘shish mos ravishda 440 va 438 foizni tashkil etgan. Umuman olganda, viloyatda innovatsion investitsiyalar hajmi o‘rtacha 4 barobar oshgan (2-jadval).

2-jadval.

Namangan viloyati tumanlari bo‘yicha innovatsion investitsiyalar hajmi²

Tuman/Shahar	2017-yil	2020-yil	2023-yil	O‘shish (2017–2023), foizda
Namangan sh.	250	640	1 180	372,0
Pop	86	230	465	440,7
Norin	74	205	398	438,0
Uychi	69	182	335	385,5
Chust	71	196	352	395,7
To‘raqo‘rg‘on	60	155	276	360,0

Bu jarayon davlat–xususiy sheriklik mexanizmlarining faollashuvi, texnoparklar va startap loyihalarni moliyalashtirish dasturlarining kengayishi hamda xorijiy investitsiyalar oqimining ortishi bilan bog‘liq.

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

² Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Mazkur natijalar Namangan viloyatida “Regional Innovation Ecosystem” modelining iqtisodiy komponenti barqarorlashayotganini ko‘rsatadi. Innovatsion investitsiyalarning bunday o‘shishi nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirgan, balki mintaqada yangi texnologik klasterlarning shakllanishiga ham zamin yaratgan. Ayniqsa, investitsiyalar sohasidagi hududlararo tafovutning kamayishi mintaqaviy integratsiyaning kuchayganini bildiradi. Natijada, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, startap ekotizimini rivojlantirish va innovatsion loyihalarga xususiy kapitalni jalb etish tendensiyasi mustahkamlanib, viloyatda innovatsion siyosat iqtisodiy o‘shishning asosiy drayveriga aylanmoqda.

3-jadval.

Namangan viloyatida ilmiy-texnik salohiyat va innovatsion kadrlar tayyorlash ko‘rsatkichlari¹

Ko‘rsatkichlar	2017-yil	2020-yil	2023-yil	O‘shish, foizda
Ilmiy-tadqiqot muassasalari soni (ta)	4	7	10	150
PhD darajasidagi xodimlar (nafar)	85	121	165	94,1
Magistratura yo‘nalishlari (ta)	27	36	44	62,9
Startap loyiha rahbarlari (nafar)	14	28	39	178,5

3-jadval ma’lumotlari 2017–2023 yillar oralig‘ida Namangan viloyatining ilmiy-texnik salohiyati va innovatsion kadrlar tayyorlash jarayonida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilganini ko‘rsatadi. Shu davrda ilmiy-tadqiqot muassasalari soni 4 tadan 10 tagacha oshib, 150 foizlik o‘shish qayd etilgan. PhD darajasiga ega ilmiy xodimlar soni 85 nafardan 165 nafarga yetgan, magistratura yo‘nalishlari esa 27 tadan 44 tagacha kengaygan. Innovatsion startap loyihalar rahbarlari soni esa 14 tadan 39 nafargacha ortib, qariyb 178 foiz o‘shish qayd etilgan. Bu raqamlar hududda ilmiy salohiyatning mustahkamlanayotganini, oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar o‘rtasidagi integratsiyaning kuchayganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlarning ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etilishi hamda ilmiy natijalarning tijoratlashtirilish darajasi bosqichma-bosqich oshib bormoqda.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Namangan viloyatida ilmiy va ta’lim infratuzilmasining rivojlanishi “Regional Innovation Ecosystem” modelining inson kapitali komponentini mustahkamladi. Bu jarayon ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasida uzluksiz bilim almashish mexanizmini shakllantirdi. Natijada, ilmiy-tadqiqot markazlari innovatsion g‘oyalarning manbaiga, texnoparklar esa ularni amaliyotga tatbiq etuvchi uzviy bo‘g‘inga aylandi. Kadrlar tayyorlash tizimining innovatsion ehtiyojlarga moslashuvi viloyatning texnologik salohiyatini oshirib, mintaqaning ilmiy-innovatsion muhitini mustahkamladi. Shu sababli, 2017–2023 yillar oralig‘ida Namangan viloyati ilmiy va innovatsion faoliyatda respublika miqyosida yetakchi mintaqalardan biriga aylangan.

Namangan viloyatida 2017–2023 yillar davomida ilmiy-texnik salohiyatning o‘shishi va uning iqtisodiy natijalarga ta’sirini aniq namoyon etadi. Ilmiy-tadqiqot muassasalari sonining 150 foizga, PhD darajasiga ega xodimlar sonining 94 foizga

¹ Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi hamda UNIDO sanoat raqobatbardoshlik indikatorlari ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

ortishi, shuningdek startap loyihalar rahbarlari sonining qariyb 178 foizga ko‘payishi viloyatda ilmiy muhit va innovatsion kadrlar tayyorlash tizimining mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi. Bu o‘zgarishlar natijasida innovatsion mahsulot ulushi 3,1 foizdan 6,8 foizgacha oshgan, ishlab chiqarish samaradorligi indeksi esa 159 punktga yetgan.

Shu bois, ilmiy-texnik salohiyatning o‘sishi mintaqaning iqtisodiy ko‘rsatkichlariga bevosita ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan. Ilm-fan, ta‘lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik mexanizmlarining kuchayishi “Regional Innovation Ecosystem” modelining amalda ishlayotganini tasdiqlaydi.

4-jadval.

Namangan viloyatida innovatsion siyosat samaradorligi va iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlari¹

Yil	Yalpi hududiy mahsulot (trln so‘m)	Innovatsion mahsulot ulushi, foizda	Ishlab chiqarish samaradorligi indeksi (2017 = 100)	Institutsional Uyg‘unlik Indeksi (IUI)
2017	26,8	3,1	100	0,41
2018	28,4	3,5	107	0,46
2019	30,9	4,0	113	0,51
2020	33,2	4,6	121	0,57
2021	36,7	5,2	130	0,64
2022	41,5	6,1	142	0,71
2023	47,8	6,8	159	0,77

4-jadval ma‘lumotlari 2017–2023 yillar davomida Namangan viloyatida innovatsion siyosat samaradorligi va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi bog‘liqlik mustahkamlanib borayotganini ko‘rsatadi. Shu davrda viloyat yalpi hududiy mahsulot hajmi 26,8 trillion so‘mdan 47,8 trillion so‘mgacha oshib, qariyb 1,8 barobar o‘shishni qayd etdi. Innovatsion mahsulot ulushi 3,1 foizdan 6,8 foizgacha ko‘tarilib, iqtisodiyotning texnologik tarkibida innovatsion ishlab chiqarishning ulushi barqaror ravishda kengaydi. Ishlab chiqarish samaradorligi indeksi 2017-yildagi 100 punktdan 2023-yilda 159 punktga yetgan. Eng muhim natijalardan biri shuki, institutsional uyg‘unlik indeksi 0,41 dan 0,77 gacha o‘shib, innovatsion boshqaruv tizimi, ilmiy markazlar va ishlab chiqarish o‘rtasidagi koordinatsiya kuchayganini tasdiqladi. Bu raqamlar mintaqada ilmiy-texnik yangiliklarning iqtisodiy natijalarga sezilarli ta‘sir ko‘rsata boshlaganini bildiradi.

Mazkur natijalar Namangan viloyatida “Regional Innovation Ecosystem” modelining samarali ishlay boshlaganini ko‘rsatadi. Innovatsion siyosatning iqtisodiy o‘shishga integratsiyalashuvi, ilmiy ishlanmalarning ishlab chiqarishga tatbiq etilishi va boshqaruv tizimining institutsional uyg‘unligi iqtisodiyotda innovatsion transformatsiyani tezlashtirdi. Shu jarayon natijasida mintaqada barqaror innovatsion ekotizim shakllanib, u iqtisodiy o‘shishni qo‘llab-quvvatlovchi asosiy mexanizmga aylandi. Shuningdek, innovatsion siyosat samaradorligining ortishi, ishlab

¹ Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi hamda UNIDO sanoat raqobatbardoshlik indikatorlari ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

chiqarishdagi texnologik yangilanishlar va inson kapitalining o'sishi Namangan viloyatini O'zbekistonning innovatsion rivojlanish markazlaridan biriga aylantirmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar natijalari 2017–2023 yillar davomida Namangan viloyatida innovatsion siyosatni rivojlantirish jarayoni izchil shakllanib, xorijiy tajriba asosidagi Regional Innovation Ecosystem (RIE) modelining amaliy mexanizmlari barqarorlashganini ko'rsatadi. Mintaqada innovatsion faol korxonalar sonining 3,2 barobar, texnoparklar sonining 5 barobar oshgani, shuningdek, innovatsion mahsulot ulushining 3,1 foizdan 6,8 foizgacha ko'tarilgani ilmiy-texnik salohiyatning iqtisodiyotga integratsiyalashganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, tumanlar kesimida innovatsion investitsiyalar hajmi o'rtacha 4 barobar oshib, mintaqaviy iqtisodiy o'sishning asosiy omiliga aylandi.

Birinchidan, tahlillar shuni ko'rsatadiki, Namangan viloyatida innovatsion siyosatni amalga oshirishning institutsional tizimi shakllanib, ilm-fan, ta'lim, biznes va davlat siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchaygan. Bu holat mintaqada barqaror innovatsion muhit shakllanishiga olib keldi. Innovatsion infratuzilmaning rivojlanishi, texnoparklar faoliyatining kengayishi va ilmiy markazlarning ishlab chiqarish bilan integratsiyasi RIE modelining amalda samarali tatbiq etilayotganini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, tumanlar kesimida investitsion oqimlarning oshishi mintaqaviy innovatsion siyosatning hududiy diversifikatsiya bosqichiga o'tganini bildiradi. Bu jarayonda davlat–xususiy sheriklik mexanizmlarining faollashuvi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish ko'lamining kengayishi muhim rol o'ynadi. Natijada, viloyatda innovatsion loyihalar hajmi va ularning iqtisodiy samaradorligi oshdi.

Uchinchidan, ilmiy-tadqiqot muassasalari sonining va PhD darajasiga ega xodimlar miqdorining ortishi inson kapitali salohiyatining yuksalayotganidan dalolat beradi. Bu jarayon ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida barqaror bilim almashinuvi mexanizmini shakllantirib, mintaqaning ilmiy-innovatsion ekotizimini mustahkamladi. Kadrlar tayyorlash tizimining innovatsion talablar bilan uyg'unlashuvi mintaqaviy iqtisodiyotning texnologik modernizatsiyasini tezlashtirdi.

To'rtinchidan, innovatsion mahsulot ulushi va ishlab chiqarish samaradorligi indeksining o'sishi viloyat iqtisodiyotining yangi sifat bosqichiga o'tganini bildiradi. Institutsional uyg'unlik indeksi 0,41 dan 0,77 gacha o'sib, boshqaruv tizimining innovatsion siyosat bilan uyg'unlashganini tasdiqlaydi. Natijada, iqtisodiy o'sish innovatsiyalar tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan barqaror jarayonga aylandi.

Beshinchidan, Namangan viloyatida xorijiy tajribalarning institutsional adaptatsiyasi samarali amalga oshirilmoqda. RIE modelining tamoyillariga asoslangan holda davlat siyosati, ilmiy markazlar, ishlab chiqarish sektori va ta'lim tizimi o'rtasida uzviy aloqadorlik mustahkamlandi. Bu jarayon viloyatni innovatsion rivojlanish markaziga aylantirib, O'zbekiston mintaqalari uchun amaliy namunaviy model sifatida qaralishi mumkin. Shu sababli, RIE modeli tamoyillarini boshqa viloyatlarda ham joriy etish, mintaqalararo innovatsion integratsiyani kuchaytirish va ilmiy tadqiqotlarni

iqtisodiy siyosat bilan uyg'unlashtirish O'zbekistonning innovatsion taraqqiyoti uchun strategik ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Lundvall, B. A. (2016). *National Systems of Innovation: Toward a Theory of Innovation and Interactive Learning*. Anthem Press.
2. Freeman, C. (1987). *Technology Policy and Economic Performance: Lessons from Japan*. London: Pinter.
3. UNDP. (2023). *Human Development Report 2023: Breaking the Gridlock – Innovation and Resilience for Sustainable Growth*. New York.
4. OECD. (2023). *Regional Innovation Policy Framework: Enhancing Place-Based Innovation Systems*. Paris: OECD Publishing.
5. European Commission. (2022). *Horizon Europe: Research and Innovation Programme 2021–2027*. Brussels.
6. Freeman, C. (1987). *Technology Policy and Economic Performance: Lessons from Japan*. London: Pinter.
7. Lundvall, B. A. (2016). *National Systems of Innovation: Toward a Theory of Innovation and Interactive Learning*. Anthem Press.
8. Cooke, P. (2001). Regional Innovation Systems, Clusters, and the Knowledge Economy. *Industrial and Corporate Change*, 10(4), 945–974.
9. Asheim, B. T., & Isaksen, A. (2002). Regional Innovation Systems: The Integration of Local “Sticky” and Global “Ubiquitous” Knowledge. *Journal of Technology Transfer*, 27(1), 77–86.
10. Doloreux, D., & Parto, S. (2005). Regional Innovation Systems: Current Discourse and Unresolved Issues. *Technology in Society*, 27(2), 133–153.
11. OECD. (2023). *Regional Innovation Policy Framework: Enhancing Place-Based Innovation Systems*. Paris: OECD Publishing.
12. UNDP. (2023). *Human Development Report 2023: Breaking the Gridlock – Innovation and Resilience for Sustainable Growth*. New York.
13. European Commission. (2022). *Horizon Europe: Research and Innovation Programme 2021–2027*. Brussels.
14. World Bank. (2023). *Innovation and Regional Competitiveness: Global Lessons for Emerging Economies*. Washington, D.C.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, iyun, 6-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710. GOCT 7.56-2002** " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**